

Oriental Journal of Education



ISSUES OF DEVELOPING KNOWLEDGE OF THE SPORT IDEAL IN THE PHYSICAL EDUCATION PROCESS

Feruzakhon Akbarovna Ramazonova

Acting Associate Professor

Tashkent University of Applied Sciences

E-mail: feruzaramazonova@yandex.ru

Tashkent, Uzbekiston

ABOUT ARTICLE

Key words: self-assessment, peer assessment, writing competence, metacognitive awareness.

Received: 23.02.26**Accepted:** 24.02.26**Published:** 25.02.26

Abstract: This article examines the pedagogical significance of self-assessment and peer assessment in the development of writing skills in English as a foreign language. Research findings indicate that these assessment strategies effectively enhance learners' autonomy, promote metacognitive awareness, and systematically improve writing competence, while simultaneously increasing students' motivation and engagement in the learning process. These approaches foster critical reflection and active participation in writing tasks.

O'Z-O'ZINI BAHOLASH AMALIYOTINING YOZUV KO'NIKMALARIGA TA'SIRI

Feruzaxon Akbarovna Ramazonova

Dotsent v.b

Toshkent amaliy fanlar universiteti

e-mail: feruzaramazonova@yandex.ru

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: o'z-o'zini baholash, o'zaro baholash, yozma nutq, metakognitiv ong.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilini xorijiy til sifatida o'rganishda yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonida o'z-o'zini baholash va o'zaro baholashning pedagogik ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mazkur baholash strategiyalari talabalarning mustaqil o'rganish qobiliyatini, metakognitiv ongini rivojlantirish va yozma ko'nikmalarini tizimli ravishda takomillashtirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi, shu bilan birga ularning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini ham oshiradi.

ВЛИЯНИЕ ПРАКТИКИ САМООЦЕНИВАНИЯ НА НАВЫКИ ПИСЬМЕННОЙ РЕЧИ

Ферузахон Акбаровна Рамазанова

и.о. доцента

Ташкентский университет прикладных наук

E-mail: feruzamazonova@yandex.ru

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: самооценивание, взаимооценивание, письменная речь, метакогнитивная осознанность.

Аннотация: В статье рассматривается педагогическая значимость самооценивания и взаимооценивания в процессе развития письменных навыков при изучении английского языка как иностранного. Результаты исследований показывают, что данные стратегии оценки эффективно способствуют формированию автономии обучающихся, развитию метакогнитивного сознания, систематическому совершенствованию письменной компетенции, а также повышают мотивацию и вовлечённость студентов в учебный процесс.

Kirish. Xalqaro miqyosidagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yozish bo'yicha zarur ko'nikmalarga ega bo'lgan shaxslar o'z tengdoshlariga qaraganda yuqoriroq mavqega ega bo'lishadi. Biroq, yozuv ikkinchi tilni o'zlashtirish jarayonidagi eng murakkab va eng sekin rivojlanadigan ko'nikma sifatida e'tirof etiladi. Tabiiy tartib gipotezasiga ko'ra, bu ko'nikma boshqa til ko'nikmalariga nisbatan kechroq shakllanadi. Yozuv murakkab kognitiv faoliyat bo'lib, u faqat mavjud bilim va malakalarni aks ettirish bilan cheklanmay, balki diqqat, tahliliy fikrlash va chuqur bilimga asoslanadi.

XX asrning 80-yillaridan boshlab, ko'plab taniqli mutaxassislar va tadqiqotchilar ta'lim jarayonidan faol o'rganishga o'tish zarurligini ta'kidlab kelmoqda. Bunda baholash jarayoni muhim o'rin tutadi. Baholash bu – o'quvchining bilim va malakasini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladigan, turli manbalardan axborot to'plash va uni tahlil qilish asosida o'quv jarayonini takomillashtirishga qaratilgan faoliyatdir. Bu jarayonda talaba markaziy o'rinni egallaydi va baholash nafaqat o'quv faoliyatining monitoringi, balki uning rivojlanishga hissa qo'shadi. Baholash o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va o'qituvchiga ularning kuchli hamda rivojlantilishi zarur bo'lgan jihatlarini aniqlashda yordam beradi.

Ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'qitish va o'rganish sohasida eng muhim muhokamalardan biri bu – o'quvchilarga o'z o'rganishlariga ma'suliyat bilan yonadashishni o'rgatish, va o'z bilimlaridan mustaqil ravishda foydalanish hamda baholashda mustaqil bo'lishga undashdir. O'quvchi mustaqilligi til o'rgatishdagi muhim elementlardan biri sifatida qoraladi. Shu sababli, o'z-o'zini baholash (self-

assessment) va o'zaro baholash (peer assessment) kabi muqobil baholash yondashuvlariga qiziqish ortib bormoqda. Bunday baholash turlari o'quvchilarning til ko'nikmalarini o'rganish va baholash jarayoniga bevosita jalb qilinishini talab qiladi. O'z-o'zini baholash va o'zaro baholash orqali talaba mustaqilligi va metakognitiv ongni rivojlantirish til o'rganishning ajralmas qismidir.

So'ngi paytlarda o'z-o'zini baholash va o'zaro baholashdan foydalanish bilan bog'liq yutuqlar ushbu baholash turlarini EFL (xorijiy til sifatida ingliz tili) o'rganuvchilarining yozma ishlaridagi mustaqillik va metakognitiv ongga ta'sirini o'rganishga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirdi. Hamkorlikda yozish, tengdoshining matniga fikr bildirish va o'z yozuvini tahlil qilish talabalarning guruhli faoliyatga jalb etadi yoki o'rganishda individuallashtirishni yaxshilaydi.

Mustaqillik – bu o'z o'rganish jarayoniga javobgarlikni olishdir. Aksariyat olimlar va pedagoglar til o'rganishda mustaqillikni integratsiya qilish zarurligi ta'kidlaydilar, chunki bu talabalarga til o'rganishda yordam beradi. Metakognitsiya esa tilni muvaffaqiyatli o'rganishda samarali vosita hisoblanadi. Talabalarning mustaqilligi va metakognitiv ongini qanday oshirishi mumkinligi masalasi hozirgi paytlarda bahsli mavzu bo'lib qolmoqda. Ko'plab xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda mustaqillik va metakognitsiyaning til o'rganishga, xususan, til ko'nikmalarini rivojlantirishga qanday ta'siri borligi o'rganilgan. Umuman olganda mavjud adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, yozma ishlarda o'z-o'zini baholash va o'zaro baholashning O'zbekistonlik talabalarning mustaqilligi va metakognitiv ongiga ta'siri hali yetarlicha o'rganilmagan. Ayniqsa, o'zbek kontekstida bu borada olib borilgan izlanishlar juda kam. Shu sababli, bu bo'shliqni to'ldirish maqsadida, tadqiqotchilar ushbu masalalarni tadqiq qilishlari, muammolarni o'rganishlari va kamchiliklarni aniqlab, o'z yechimlarini berishga kirishishlari maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim va o'qitish jarayonining bilimga asoslangan yondashuvdan kompetensiya yo'naltirilgan faoliyatga o'zgarishi an'anaviy bilimlarni sinash talablaridan tashqariga chiqadigan baholash usullarini talab qiladi. Bundan tashqari, talabalardan baholash jarayonida faol ishtirok etishlari kutiladi. O'z-o'zini baholashdan tashqari, unga parallel tarqalgan metod bu – o'zaro baholashidir. Umuman olganda, yozuvni baholashda ko'p xollarda faqat o'qituvchining ma'suliyati asosiy o'rinda ko'riladi. Biroq yangi yondashuvlar asosida talabalar o'zlari va tengdoshlarining yozma ishlarini baholash ma'suliyatini ham o'z zimmlariga olishni boshlaydilar.

O'z-o'zini baholash – bu ma'lumotlarga asoslangan tizimli, o'z-o'zini tahlil qilish jarayonidir. O'z-o'zini baholashning afzalligi shundaki, u talabalarning o'qish jarayoniga faolroq jalb qilinishini ta'minlaydi, ulardan o'z faoliyatlarini tahlil qilishni talab qiladi hamda o'ranish maqsadlarini belgilash va qaror qabul qilishda ma'suliyatni o'z zimmasiga olishga undaydi. O'z-o'zini baholash til o'rganishda metakognitiv strategiyaning bir ko'rinishi hisoblanadi.

So'ngi yillarda talaba markazda (student centered) o'quv dasturlari, ehtiyojlar tahlili va talaba mustaqilligiga bo'lgan talablarning ustunligi bilan o'z-o'zini baholash mavzusi baholash sohasida

alohida qiziqishga sabab bo'lmogda. Samarali o'z-o'zini baholash ta'lim samaradorligini oshirishga katta hissa qo'shadi.

Tadqiqot olib borish jarayonida o'z-o'zini baholash va o'zaro baholash sohasiga bagishlangan dunyo til o'qitish metodikasida olib borilgan bir qator ilmiy izlanishlar tahlil qilindi. Adabiyotlar va ilmiy tadqiqotlarni o'rganish jarayonida biz o'z-o'zini va o'zaro baholash orqali ingliz tilida yozma nutqni o'stirish yuzasidan tadqiqotchilar fikrlarini va qarashlarini umumlashtirishga xarakat qildik.

O'z-o'zini baholash yuzasidan ilmiy qarashlar

Olim	Tamoyil/asosiy g'oya
Dikinson [3]	1.O'z-o'zini baholash – bu o'quvchilarning o'z nuqtai nazarlaridan kelib chiqib bergan baholaridir 2. O'z-o'zini baholash bilimga ongli nazorat o'rnatish orqali metakognitiv ongni shakllantirishdir
Baud [2]	Talabalar o'z baholash mezonlarini ishlab chiqib, tanqidiy fikrlash asosida baholaydilar.
Klenovskiy [5]	Talaba o'z faoliyatini baholab, kuchli va zaif jihatlarini aniqlab, rivojlanishga xarakat qiladi.
Haris [4]	Mustaqil o'rganish va motivatsiya uchun o'z-o'zini baholash zarur
Ros [7]	O'quvchilarni baholash jarayoniga jalb qilish, ayniqsa baholash mezonlarini ishlab chiqishda ularning ishtirokini ta'minlash, ularning ushbu topshiriqlarga bo'lgan qiziqishini oshiradi
Andreyd va Dyu [1]	O'z-o'zini baholash – bu aniq mezonlarga asoslangan, tuzatishlar kiritish imkonini beruvchi formativ jarayon.
Reys P, Braun S, va Smis B [6]	O'rganishga qaratilgan baholash o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirish, o'z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish imkonini beradi.

O'rganuvchilar o'z faoliyatini baholashda ba'zi mezonlardan foydalanishadi va o'z o'quv jarayonlarini tanqidiy tarzda tahlil qilishadi. Shu sababli, o'z-o'zini baholash metakognitiv

xabardorlikni oshirishning samarali usuli hisoblanadi va talabalarga til o'rganishda yanada samarali bo'lishi uchun yangi metakognitiv strategiyalarni o'rganishga yordam beradi.

O'z-o'zini baholash talabalarning ish sifati yaxshilanishi va qiyinchiliklarni erta va samarali aniqlashga xizmat qiladi. Talabani o'z-o'zini baholashi o'z faoliyatini mustaqil ravishda baholashini anglatadi. Amaliyot davomida ular o'z taraqqiyotini obyektiv tarzda aks ettirishni, tanqidiy baholashni, o'z bilim va ko'nikmalaridagi bo'shliqlarni aniqlashni, faoliyatini yaxshilash yo'llarini belgilashni o'rganadi. Bundan tashqari, o'z ishlarini baholash ularga o'quv maqsadlari va muvaffaqiyat mezonlarini chuqur tushunishga yordam beradi. Talabalarning o'z o'qish va baholash jarayonida faol ishtirok etishlarining rivojlanishini sezilarli darajada ta'minlaydi.

Ko'plab afzalliklarga qaramay, o'z-o'zini baholashning muammolari ham bir qator tadqiqotlarda ko'rsatib o'tilgan. O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'z-o'zini baholash to'g'risidagi tushunchalarning farqli bo'lishi kamchilik sifatida ko'riladi. Talabalar o'z baholarining ishonchililigiga shubha qilishadi, chunki ular baholashni o'zlari subyektiv tarzda amalga oshiradi deb hisoblashadi. Shuningdek, o'qituvchilar ham, talabalar ham baholashni faqat o'qituvchining vazifasi deb hisoblaydi. Shu bois ular hamkorlikda baholashga tayyor emaslar. Baholash tajribasi yetishmasligi ham o'quvchilarning bu jarayonga qiziqishini kamaytiradi.

O'z-o'zini baholash vaqt talab qiluvchi jarayon hisoblanib, o'qituvchi mezonlarni tushuntirishga ko'proq vaqt sarflaydi, talabalar esa ularni tushunishda qiynaladi. Ba'zida talabalar o'z ishlarini xolis baholamay, ortiqcha baho berishlari mumkin. Bunga qo'shimcha ravishda, ushbu baholash usuli yuqori darajadagi ongli yondashuv va til kompetensiyasini talab qiladi, ayniqsa boshlang'ich bosqichdagi darslar uchun bu yondashuv amaliy jihatdan murakkab bo'lishi mumkin.

Bu kamchiliklarni oldini olish va tadqiqotni samarali o'tkazish maqsadida bir nechta yechimlar taklif etamiz.

Birinchidan, talabalar o'z yozma ishlarini baholab bo'lgach, o'qituvchi ular ustidan qoshimcha baholash olib borishlari zarur.

Ikkinchidan, baholash mezonlari soda va tushunarli so'zlar bilan tuzilishi muhim

Uchinchidan, o'qituvchi talabalarga o'z-o'zini baholashni model qilib qayta-qayta ko'rsatish talab qilinadi.

To'rtinchidan, baholashda subyektivlik yoki ortiqcha baholashning oldini olish maqsadida o'z-o'zini baholashga parallel ravishda o'zaro baholash ham qo'shiladi.

Mazkur maqolada ingliz tilini xorijiy til sifatida o'rganayotgan talabalar yozma nutqini rivojlantirishda o'z-o'zini baholash va o'zaro baholashning ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, yozma nutq ikkinchi tilni o'zlashtirish jarayonida eng murakkab va sekin rivojlanadigan ko'nikmalardan biri bo'lib, u yuqori darajadagi kognitiv jarayonlar, jumladan, tahliliy fikrlash, diqqatni jamlash va metakognitiv ongning talab etadi. Tabiiy tartib gipotezasiga ko'ra

ham yozuv boshqa til ko'nikmalariga nisbatan kechroq shakllanadi, bu esa mazkur ko'nikmani rivojlantirishda samarali pedagogik yondashuvlarga ehtiyoj mavjudligini ko'rsatadi.

XX asrning 80-yillaridan boshlab ta'limda talaba markazli yondashuvning ustuvor ahamiyat kasb etishi baholash jarayoniga ham yangi talablarga asoslangan yondashuvlarni joriy etishni taqozo etdi. Baholash endilikda faqat natijani o'lchash vositasi sifatida emas, balki o'quv jarayonini takomillashtirish, talabalarning mustaqilligini rivojlantirish va ularning o'z o'rganishlariga mas'uliyat bilan yondashishini ta'minlovchi muhim pedagogik mexanizm sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, o'z-o'zini baholash va o'zaro baholash muqobil baholash turlari sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'z-o'zini baholash va o'zaro baholash talabalarning metakognitiv ongini rivojlantirish, mustaqil o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish hamda yozma nutq sifatini oshirishda samarali vosita hisoblanadi. Talabalar o'z va tengdoshlarining yozma ishlarini baholash orqali o'z faoliyatini tanqidiy tahlil qilish, kuchli va zaif jihatlarini aniqlash, o'rganish maqsadlarini belgilash hamda o'z o'rganish jarayonini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Bu esa ularning til o'rganish jarayonida faol va mas'uliyatli subyektga aylanishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, o'z-o'zini baholash va o'zaro baholash jarayonida qator muammolar ham mavjudligi aniqlanadi. Baholash mezonlarini to'g'ri tushunmaslik, subyektivlik, vaqt talab qilishi hamda talabalar va o'qituvchilarning an'anaviy baholashga bo'lgan munosabati ushbu yondashuvlarning samaradorligini cheklashi mumkin. Ayniqsa, til kompetensiyasi yetarli darajada shakllanmagan boshlang'ich bosqichdagi talabalar uchun bu jarayon murakkab bo'lishi mumkin.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili o'z-o'zini baholash va o'zaro baholashning EFL o'rganuvchilarining yozma nutqini rivojlantirish, mustaqillik va metakognitiv ongni shakllantirishdagi muhim rolini tasdiqlaydi. Biroq, O'zbekiston ta'lim kontekstida mazkur baholash turlarining yozma nutq, mustaqillik va metakognitiv ongga ta'sirini o'rganishga qaratilgan empirik tadqiqotlar yetarli emas. Shu sababli, ushbu sohada olib boriladigan ilmiy izlanishlar mavjud bo'shliqni to'ldirishga, amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga hamda til o'qitish metodikasini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Andrade, H., Du, Y. Student responses to criteria-referenced self-assessment / H. Andrade, Y. Du // Assessment and Evaluation in Higher Education. – 2007. – Vol. 32, No. 2. – P. 159–181.
- 2.Boud, D. Implementing student self-assessment / D. Boud. – Campbelltown : Higher Education Research and Development Society of Australia Inc., 1991.
- 3.Dickinson, L. Self-instruction in language learning / L. Dickinson. – Cambridge : Cambridge University Press, 1987.

- 4.Harris, M. Self-assessment of language in formal setting / M. Harris // ELT Journal. – 1997. – Vol. 51, No. 2. – P. 95–115.
- 5.Klenowski, V. Student self-evaluation processes in student-centred teaching and learning contexts of Australia and England / V. Klenowski // Assessment in Education. – 1995. – Vol. 2, No. 2. – P. 145–163. – DOI: 10.1080/0969594950020203.
- 6.Race, P., Brown, S., Smith, B. 500 Tips on Assessment / P. Race, S. Brown, B. Smith. – London ; New York : Routledge, 2005. – DOI: 10.4324/9780203307359.
- 7.Ross, J. A. The reliability, validity, and utility of self-assessment / J. A. Ross // Practical Assessment, Research, and Evaluation. – 2006. – Vol. 11, No. 1. – Art. 10. – DOI: 10.7275/9wph-vv65.